

Respublika bolalar kutubxonasi

**Ilmiy-uslubiyot va maktab ARMLari
mutaxassislarini malakasini oshirish bo‘limi**



**“Amir Temur – yuksak ma’naviyat sohibi”
Amir Temur tavalludiga bag‘ishlangan
uslubiy tavsiyanoma**

Toshkent 2016

Ushbu uslubiy tavsiyanoma ilmiy-uslubiyot va maktab ARMLari mutaxassislarini malakasini oshirish bo‘limi tomonidan tayyorlandi.

Respublika bolalar kutubxonasi ilmiy-uslubiyot kengashining yig‘ilishida 2016-yil ____-apreldagi ____-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlandi.

Nashr uchun mas’ul:

K.Bekova – Ilmiy-uslubiyot va maktab ARMLari mutaxassislarini malakasini oshirish bo‘limi yetakchi mutaxassisi.

Amir Temur tavalludiga bag‘ishlangan **“Amir Temur – yuksak ma’naviyat sohibi”** deb nomlangan uslubiy tavsiyanoma maktab ARMLari mutaxassislari va o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan.

Qo‘llanmada Amir Temur hayoti, jahon tarixidagi xizmatlari va tutgan o‘rni, davlatni boshqarishdagi yetuk siyosiy salohiyati haqida ma’lumotlar yoritilgan. Ushbu uslubiy tavsiyanomada 5-7-sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan tadbir ssenariysi berilgan.

*Amir Temur – xalqimiz
dahosining timsoli, ma'naviy
qudratimiz ramzidir.*

ISLOM KARIMOV

Milliy davlatchiligimiz tarixining mumtoz namunasi

Bugungi kunning o'tkir va dolzarb muammolari bizdan zamonaviy taraqqiyotning asosiy tamoyillarini har tomonlama chuqur tahlil etish bilan birga, insoniyatning yaqin-olis tarixidagi boy tajribasini ham teran idrok etishni, shu asosda amaliy xulosalar chiqarishni taqozo etmoqda, ya'ni tarix tajribasi odamzod uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hech bir mubolag'asiz aytish mumkunki, o'zbek xalqining ko'p asrlik tarixi ham ana shunday buyuk tajribalar manbayidir. Bu tarixning eng yorqin va shonli sahifalarini tashkil etadigan ulug' ajdodlarimiz haqida so'z borganda, buyuk davlat arbobi va sarkarda, sohibqiron Amir Temur bobomizning o'lmas nomini birinchilar qatori tilga olishimiz tabiiy, albatta. Mana, qariyb yetti asrdirki, bu ulug' zotning shon-u shuhrati, hayoti va faoliyatiga bo'lgan qiziqish jahonning turli mamlakatlarida tobora ortib bormoqda.

Amir Temur ibn amir Tarag'ay 1336-yil 9-aprelda Kesh (Shahrisabz) viloyatining Xo'ja Ilg'or qishlog'ida dunyoga kelgan. Uning otasi amir Muhammad Tarag'ay barlos ulusiga mansub beklardan, bahodir jangchi, ulamo-yu fuzaloga ixlosmand, ilm ahliga homiy va ishtiyoqmand kishi bo'lgan. Amir Temurning yoshligi haqida ma'lumotlar kam uchrasa-da, ayrim manbalarga qaraganda, u yoshligida xat-savod chiqarib, o'z davrining tibbiyot,

riyoziyot, falakiyot, me'morchilik va tarix ilmlarini o'rgangan. Amir Temur bilan suhbatlashish sharafiga muyassar bo'lgan buyuk arab faylasufi Ibn Xaldun jahongir turk, arab, fors xalqlari tarixini, diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarning murakkab jihatlarigacha yaxshi o'zlashtirganini ta'kidlaydi.

Amir Temurning hayoti va faoliyatida ikki davr yaqqol ko'zga tashlanadi. Birinchi davri (1360-1385) Movarounnahrni mo'g'ul xonligidan ozod qilib, yagona markazlashgan davlat tuzish, o'zaro urushlarga barham berish. Ikkinchi davri (1386-1405) esa ikki yillik, uch yillik, besh yillik, deb ataluvchi boshqa mamlakatlarga yurishlari bilan xarakterlanadi.

1360-yillardan boshlab Amir Temur Movarounnahrdagi ichki nizo, urushlarda ishtirok eta boshladi va Mo'g'uliston hukmdori Tug'luq Temurxon, uning o'g'li Ilyosxo'jaga qarshi kurashlardan so'ng, Amir Husayn ustidan g'alaba qozongach, 1370-yilda Movarounnahr taxtining haqiqiy sohibi bo'ldi va Samarqandni hokimiyat poytaxti etib belgiladi.

Temur davlatni boshqarishga katta e'tibor berib, yangi davlat tizimi bo'yicha Devoni buzrugdan tashqari, har bir viloyatda Devon deb ataluvchi boshqarma tuzib, bu boshqarmalar soliq yig'ish, tartib saqlash, ijtimoiy binolar - bozorlar, hammomlar, yo'llar, sug'arish tarmoqlariga qarab turish va aholining xulqiy-axloqiy harakatlarini nazorat ostiga olish kabi ishlar bilan shug'ullangan. Har bir Devonda kirim va chiqimlarni hisobga olish, qayd etish turk-o'zbek va fors-tojik tillarida olib borilgan.

Shuningdek, davlatni boshqarishda Sohibqironning "Temur Tuzuklari" asarining o'рни beqiyosdir. "Temur tuzuklari"da davlat tizimi, davlatdagi turli lavozimlarning vazifasi, undagi turli toifalar va ularga munosabat, davlatni boshqarishga asos bo'lgan qoidalar, qo'shinlarning tuzilishi, tartibi, uni boshqarish, ta'minlash,

ragʻbatlantirish, qoʻshin turlarining tutgan oʻrni va oʻzaro munosabati kabi masalalar bayon etiladi. Davlat ishlarini har doim islom va shariat hukmlari asosida olib borilganligi bir necha bor taʼkidlanadi. “Saltanatim martabasini, – deb taʼkidlaydi Amir Temur, – qonun-qoidalar asosida shunday saqladimki, saltanatim ishlariga aralashib, ziyon yetkazishga hech bir kimsaning qurbi yetmasdi”. Bundan tashqari, asarda jamiyat ishlaridagi odamlarning 12 toifaga boʻlinishi, saltanatni boshqarishda 12 qoidaga amal qilinganligi, saltanat 4 qatʼiy qoidaga asoslanishi kabi masalalar ham tartib bilan bayon etilgan”.

Shuni alohida taʼkidlash lozimki, Amir Temur davlat, jamiyat hayotida boʻlib oʻtadigan har bir muhim reja oldidan kengash oʻtkazar va bu kengashga nafaqat davlat arboblari, sarkardalar, temurzodalarni, balki sayyidlar, shayxlar, ilm-fan arboblari ham taklif etgan va oʻzining har bir yurish oldidan bunday kengashlarni oʻtkazib turishni odat tusiga kiritgan.

Manbalarda sohibqiron Amir Temur – yorqin xislatlarga ega ekanligi, xotirasi oʻtkir, shijoatli va qatʼiyatli, bir soʻzli, zoʻr ruhiy qudrat egasi, salobatli inson sifatida taʼriflanadi.

Amir Temurning Osiyo, umuman jahon tarixidagi xizmatlari va tutgan oʻrni haqida xulosa qilib, quyidagilarni taʼkidlab oʻtish joizdir: Amir Temur Markaziy Osiyoni moʻgʻullar iskanjasidan ozod etishda barcha yurtparvar kuchlarni uyushtirib, ularni mustaqillik uchun kurashga yoʻnaltirgan yetakchi rahbar, yerli xalqning bu sohadagi orzu-umidlarini roʻyobga chiqishiga ulkan hissa qoʻshgan sarkardadir; Amir Temur koʻp yillar davomida mustamlaka boʻlib, chet ellik hukmdorlarga boʻysunib kelgan Movarounnahr va Xurosonda oʻz yurti, xalqining kuch-qudratiga tayangan mustaqil va yagona davlat barpo etdi; Amir Temur ham oʻz davriga xos boʻlgan turli sabablarga binoan boshqa

mamlakatlarga yurishlar qildi va Yevropa mamlakatlarining rivojlanishini tezlashishiga o'z hissasini qo'shdi. Rossiyani Oltin O'rda zulmidan, Yevropani Turkiya tajavvuzidan saqlab qoldi; Amir Temur o'z siyosatida madaniyat, obodonchilik, hunarmandchilik homiysi bo'lib tanildi. O'z siyosati bilan madaniy yuksalishga va turkiy tilning rivojiga keng yo'l ochib, nafaqat Markaziy Osiyoning madaniy-ma'naviy olamida, balki butun musulmon olami tarixida o'chmas iz qoldirdi va so'nggi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi; Amir Temur qator Sharq mamlakatlari va ayniqsa, Yevropa mamlakatlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatib, ular bilan turli savdo-sotiq, madaniy aloqalarga yanada keng yo'l ochib berdi.

Prezidentimiz Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida Amir Temur bobomizning ma'naviy fazilatlari haqida to'xtalar ekan: "Tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilm-fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochdi" deyilar. Haqiqatan ham, xalqiga, Vataniga munosib xizmat qilgan Sohibqironning fazilatlari biz avlodlarga namunadir.

1. Amir Temurni ulug'lash – tarix qa'riga chuqur ildiz otgan tomirlkarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizni, ishonchimizni mustahkamlash demakdir.

Islom Karimov

2. Amir Temurdek buyuk va betakror siymoni har tomonlama tushunish, u barpo etgan qudratli saltanatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy asoslarini, Sohibqironning davlat boshqaruvi borasidagi ulkan salohiyati, mahorati, bilim va tajribalarini o'rganishda, umuman aytganda, hayot sirlarini anglab yetishda “Temur tuzuklari” bebaho qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Islom Karimov

3. Temuriylar davri haqiqatan ham ilm-fan, madaniyat va maorifning behad ravnaq topishini ta'minlagan sharq uyg'onish davri edi.

Islom Karimov

4. Buyuk shaxslarni millat qayg'usi, xalq dardi yaratadi. Umrining mazmunini “Millatning dardlariga darmon bo'lishdan iborat” deb bilgan Amir Temur xalqimizning ana shunday ardoqli, ulug' farzandidir.

Islom Karimov

5. Amir Temur – bizning shon-shavkatimiz, g'urur-iftixorimizdir.

Islom Karimov

6. Amir Temur shaxsini idrok etish – tarixni idrok etish demakdir.

Islom Karimov

7. Amir Temur obrazini turli davrlarga bo'lmasdan, uning favqulodda buyuk aql-zakovati, jasorati va azm-u shijoatini yahlit holatda mujassam ifoda etish har jihatdan to'g'ri bo'lardi. Toki Amir Temur siymosini kim qayerda ko'rmasin, uning mardona, ulug'vor va donishmand qiyofasini bexato taniy olsin.

Islom Karimov

8. Kimki o'zbek nomini, o'zbek millatining kuch-qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo'shgan xissasini, shu asosda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temur siymosini eslashi kerak.

Islom Karimov

**“Amir Temur – yuksak ma’naviyat sohibi”
deb nomlangan 5-7-sinf o‘quvchilari uchun
mo‘ljallangan tadbir ssenariysi**

(Sahna bayramona bezatilgan. To‘rda Amir Temur siymosi tasvirlangan portret, uning to‘g‘rilikka, adolatga hamda ilm-u ma’rifatga chorlovchi tuzuklaridan namunalar osilgan.

Musiqa sadolari ostida buyuk sarkardaning faxr-u g‘urur bilan o‘z millatining sha’nini ulug‘lagan quyidagi so‘zlari yangraydi:)

– “Biz, kim – mulki turon, amiri turkistonmiz.

Biz, kim – millatlarning eng qadimi va eng ulug‘i – turkning bosh bo‘g‘inimiz”.

(Sahnaga boshlovchi chiqadi va tadbir munosabati bilan yig‘ilgan mehmonlarga ta’zim bajo keltirib, salomlashadi.)

1-boshlovchi: Assalomu alaykum hurmatli ustozlar va murabbiylar.

2-boshlovchi: Assalomu alaykum maktabimizning tinib-tinchimas, izlanuvchan o‘quvchilari.

1-boshlovchi: Mana bugun Sohibqiron bobomiz Amir Temur tavalludiga bag‘ishlangan “Amir Temur – yuksak ma’naviyat sohibi” deb nomlangan tadbirimizda diydor ko‘rishib turganimizdan benihoyat xursandmiz.

2-boshlovchi: Har bir xalqning nomini, shuhratini ellarga tanitib, ming yillarga olib o‘tadigan mashhur insonlari bo‘ladi. Bizning Sohibqiron bobomiz Amir Temur ham ana shunday mo‘tabar zotlardandir.

(Sahnaga bolalar chiqadilar. Ular Sohibqiron haqida so‘zlaydilar).

1-o‘quvchi:

Assalom, bobojon, buyuk sarkarda,
Qoshingdan o‘tamiz har subhidam chog‘.
Sen esa hamisha tiksan egarda,
Hamisha mag‘ursan, hamisha uyg‘oq.

2-o‘quvchi: Amir Temur – buyuk shaxs. Mashhur sarkarda va yirik davlat arbobi sifatida dunyoda tan olingan. Kuragi yerga tegmagan inson. 1370-1405-yillarda Movarounnahr, Afg‘oniston, Eron va Ozarbayjonda hukmronlik qilgan sulola asoschisi, el-u yurtini sevgan va uni mashhuri jahon qilgan ulug‘ zot.

3-o‘quvchi: Amir Temur 1336-yil 9-aprelda Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahri yaqinidagi Xoja Ilg‘or qishlog‘ida dunyoga kelgan. Uning otasi amir Muhammad Tarag‘ay barlos ulusiga mansub beklardan bo‘lib, bahodir jangchi, ilm ahliga homiy va ishtiyoqmand kishi sifatida tanilgan. Onasi Takina Mohbegim mashhur qonunshunos olim-u fuzalolar avlodidan, tengi yo‘q oqila ayol bo‘lgan.

4-o‘quvchi: – Otasi Tarag‘ay bahodir o‘g‘li Temurbekni ilmi, ma’rifatli va go‘zal xulqli, har jihatdan yetuk, bahodir yigit bo‘lib

ulgʻayishini istagan holda madrasaga oʻqishga qoʻyadi. Uning 9 yoshida savodi chiqadi. Madrasa toliblari ichida aql-zakovat bobida eng bilimdoni va salohiyatlisi boʻlib, diniy va dunyoviy bilimlarni qunt bilan oʻrgangan. Qurʻoni Karimni yod bilgan.

Bolalar ijrosida qoʻshiq va raqs ijro etiladi.

5-oʻquvchi: Buyuk sarkarda bobomiz yoshligidan qilichbozlikni, nayzabozlikni, ov qilishni, chavandozlikning barcha sir-asrorlarini mukammal oʻrganadi. Ustozlar koʻrsatmasi va tinimsiz mashqlar tufayli mohir jangchi sifatida shuhrat qozonadi.

6-oʻquvchi: Sohibqiron Oʻrta Osiyo - Movaraunnahrni (1370-1405 yillar) moʻgʻul bosqinchilaridan ozod qilib, murakkab tarixiy sharoitda yirik va qudratli davlat tuzgan. Shuning uchun ham bu zotni jahonga dongʻi ketgan ulugʻ sarkardalar qatoriga qoʻyishgan.

7-oʻquvchi: U saltanatni boshqarishda 4 narsaga qatʻiy amal qilgan: 1-amir soʻzi; 2-kengash; 3-qatʻiy qaror; 4-ehtiyotkorlik bilan gʻanimni yengib, mamlakatni boʻysundirish.

8-oʻquvchi: Mamlakatning obodonchilik ishlariga katta eʼtibor qaratgan. Bu borada bir qancha amru farmonlar bergan. Qoʻriq va boʻz yerlarni oʻzlashtirish, koʻpriklar solib, rabotlar qurish borasida ham maxsus koʻrsatmalar bergan. Qurbi yetmagan yer egasiga ekin-tekin ishlarida asbob-uskunalar, urugʻlik bilan yordam berish va shu orqali aholi moddiy ahvolini yaxshilashga alohida ahamiyat qaratgan. Shuni mamnuniyat bilan aytish joizki, saltanat sohibining ilmu maʼrifatga katta eʼtibor qaratishi tufayli bu zaminda sevimli

nabirasi Muhammad Tarag‘ay – Ulug‘bekdek dunyoga mashhur noyob iste‘dod egalari yetishib chiqqan.

9-o‘quvchi: Amir Temur og‘ir mashaqqatlarning bariga bardosh berib, sabot, matonat bilan pirlari va ustozlari nasihati tufayli fe‘l-atvori turlicha bo‘lgan amirlarning boshlarini birlashtirib, buyuk va qudratli Temuriylar davlatini barpo etdi. Davlat boshqaruvida diplomatik aloqalar, elchilarni qabul qilish ishlarini samarali yo‘lga qo‘ydi.

(Shu o‘rinda kichik sahna ko‘rinishi namoyish etiladi. Sohibqiron huzuriga qo‘li ko‘ksida ta‘zim ila devonbegi kiradi.)

Devonbegi: Olampanoh! Ispaniya elchisi kelmish, huzuringizga kirish uchun izn so‘raydur.

Amir Temur: Kirsin!

(Elchi kiradi va ta‘zim ila hurmatini bajo keltiradi.)

Amir Temur: Klavixo, bizning eski birodarimiz. Aytchi, o‘g‘lim, qirolning ahvoli nechuk? Unga jami ezguliklar yor bo‘lsin, deyman.

Klavixo: Qirolim ham sizga mudom sog‘liq tilaydi. Karvon bilan yetib kelgay uning tuhfasini. Zafar muborak, a‘lohzrat.

Temur: Qulluq, qulluq.

Klavixo: A'lohazrat, bul muraqqa daftarda Ispan yurtining shaharlari qasrlari, go'zal manzaralari tasvirlangan.

Temur: G'oyat noyob sovg'adur bu, senga tashakkur! Shoyon hurmat ko'rsating Klavixoga, shohona sarpolar kiygizing.

Devonbegi: Zafarni qutlash uchun andijoniylar, bir minora yasamishlar momiq paxtadan.

Temur: Faxr eturman men xalqimning san'ati bilan, uning ko'ngli xuddi o'sha paxtadek oq. Siylovlarni ayamangiz ulardan aslo!

Devonbegi: O'rusiya vakillari navbat kutmoqda!

O'rusiya elchisi: Zafar muborak, hazrati Temur! To'yonamiz qabul qiling. Olib keldik olmos ko'zli oltin qarchig'ay va silovsin mo'ynasidan tikilgan po'stin.

Temur: Tashakkurim aytadurman qarchig'ay uchun, do'st bo'lg'ay u g'olib turon burguti bilan. O'ruslarning yelkasiga zarbof to'n tashlang. Kimki menga kelib qo'shilsa, ulug'lanadi, Kimki men bilan kurashmoqchi bo'lsa, yiqiladi.

(Bolalar ijrosida qo'shiq ijro etiladi).

Siz - Amirsiz, Siz-Temursiz,

jahongir Sulton.

Iymondirsiz, vijdondirsiz

Siz aziz inson.

Qalblar aro ko'tarmoqda

ruhingiz isyon,
Temur bobo, nomingizni
yodetajakmiz.
Olam aro ruhingiznishod etajakmiz.
Tumorlarda, duolardaj yashab qolasiz,
Ko'kni o'pgan binolardaj yashab qolasiz,
Ko'zga ko'chgan/ziyolarda yashab qolasiz,
Narziy bitgan navolarda yashab qolasiz.
Temur bobo, nomingizni yodetajakmiz,
Olam aro ruhingizni shod etajakmiz!
Bobomizga hurmat
Amir Temur ajdodlarimiz

Sahnaga bolalar chiqib Amir Temur haqida qiziqarli faktlar aytishadi.

1-o'quvchi: Buyuk Jahongir 35 yil O'rta Osiyo hukumdori (1370-1405) bo'lib, ko'p o'lkalarni zabt etdi. Samarqand, Shahrisabz kabi shaharlarda dunyoga dong'i ketgan ajoyib binolar, madrasa-yu machitlar qurdirganki, ular hozir ham barchani hayratga soladi.

2-o'quvchi: Samarqand atrofida mashur "Bog'i Chinor", "Bog'i Shimol", "Bog'i Behisht", "Bog'i Jahonnamo", "Bog'i Baland", "Bog'i Dilkusho", "Bog'i Zog'on" kabi go'zal bog'larni barpo ettirdi.

3-o'quvchi: Shahrisabz shahridagi Oqsaroy, Hazrati shayx Jahongir maqbarasi Arkoni davlat bilan bog'liqdir.

4-o'quvchi: Qudratli saltanat sohibi dunyoda birinchi bo'lib, hayotlik davridayoq o'zining harbiy san'ati va davlatni boshqarish uslubiga bag'ishlangan maxsus asar yaratadi. U "Temur tuzuklari" nomi ostida shuhrat topadi. "Temur tuzuklari" - Amir Temurning harbiy va siyosiy faoliyati to'g'risida ma'lumot beruvchi noyob asar hisoblanadi.

5-o'quvchi: U 2 qismdan iborat bo'lib, 1-qismi davlatni barpo etish va mustahkamlash, qo'shnlarni tashkil etish borasidagi tuzuklardan iboratdir.

6-o'quvchi: 2-qismi esa 13 kengash, Jahongirning harbiy yurishlari to'g'risida qimmatli ma'lumot va tafsilotlarni o'z ichiga oladi. Tuzuklarni o'qirkanmiz Sohibqironga xos bo'lgan insoniy fazilatlarga, mardlik, jasurlik timsollariga havasimiz keladi.

Milliy raqs ijro etiladi. Raqs tugagach, o'quvchilar Amir Temur bobomizni madh etuvchi she'rlar o'qib beradilar.

1-o'quvchi: — Amir Temur bobomiz

Mard-u jasur bobomiz.

Jang-u jadallar kezgan Buyuk davlat, yurt tuzgan.

Abadiy o'chmas nomi,

Tilimizda kalomi.

Unutmaymiz hech qachon

Sizni ulug' bobojon!

2-o'quvchi:

— Buyuk saltanatni tikladi Temur,
Istagi: avlodim otsa zo`r tomir,
Mulki Turon dunyo uzugi bo`lib,
Xalqim osoyishta ko`rsaydi umr.

3-o`quvchi:

— Sohibqiron aytar: ey farzandlarim,
Ko`zimning qarog`i jon dilbandlarim.
Millatning dardiga darmon bo`lingiz,
Bo`shashtirmang mening bo`g`in-bandlarim.

4-o`quvchi:

— Adolat, ozodlik dastida bo`ling,
Yomonlik, razolat qasdida bo`ling.
Nifoq tuxmatlarin ekmangiz aslo,
Yaxshilik, ezgulik rostida bo`ling!

(Bolalar “Temur tuzuklari”dan namunalar aytadilar.)

**1-o`quvchi:** Kimki senga do`stlik qilsa, do`stligi qadrini
unutma, unga muruvvat, ehson, izzat-u ikrom ko`rsat.

**2-o`quvchi:** Chin do`st uldirki, do`stidan hech qachon
ranjmaydi. Agar ranjisa ham, uzrini qabul qiladi.

3-o`quvchi: Bir kunlik adolat – yuz kunlik toat ibodatdan afzal.

**4-o`quvchi:** Og`zingga qon to`lsa ham, dushman oldida
tupurma.

**5-o`quvchi:** Oltmishga kirgan otadan osh so`rama.

**6-o`quvchi:** Qilich o`tkir bo`lsa-da o`z sopini kesmagay.

7-o`quvchi: Ot mingan otasini unutadi.

**8-o`quvchi:** Quدراتimizga shak-shubhangiz bo`lsa, biz qurdirgan binolarga boqing.

1-boshlovchi: Vatanimiz Mustaqillikka erishgandan buyon qanchadan-qancha ota-bobolarimiz, buyuk ajdodlarimiz nomi tiklandi. Shular qatorida Amir Temur bobomiz ham adolatparvar va qudratli saltanat egasi sifatida e`zozlandi.

2-boshlovchi: Prezidentimiz I.A.Karimov 1996-yilni “Amir Temur yili” deb e`lon qildilar. Mamlakatimizdagi noyob tarixiy yodgorliklar ta`mirlandi. 1996-yil 18-oktabr kuni Sohibqironning 660 yillik tavallud to`yi munosabati bilan Amir Temur nomi bilan atalgan xiyobonda buyuk sarkarda, davlat arbobi va u asos solgan temuriylar sulolasiga bag`ishlangan go`zal koshona – Temuriylar tarixi davlat muzeyi ochildi. Toshkent, Samarqand va Shahrisabz shaharlarida ulug` bobomizning haykallari qad rosladi.

1-boshlovchi: O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Shahrisabz va ro`yi zamin sayqali, buyuklik maskani – Samarqand shahriga “Amir Temur” ordenini topshirdilar. Endilikda Amir Temur nomi bilan bog`liq bo`lgan maktab, jamoa xo`jaligi, ko`cha va xiyobonlar hamda tarixiy muzeylar ham bu ulug` insonga yurtdoshlarimizning yuksak ehtiromi ramzidir.

2-boshlovchi: Buyuk sarkarda Amir Temur 1405-yil 18-fevralda O`tror shahrida vafot etadi. Sohibqiron bobomizni dunyo

taniydi, u kabi ulug‘ odamlar bir umr oramizda yashaydilar. Bolalar Yurtboshimizning buyuk sarkarda to‘g‘risidagi ta’riflarini bayon etadilar.

1-boshlovchi: Amir Temurni ulug‘lash – tarix qa’riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizga ishonchimizni mustahkamlash demakdir.

2-boshlovchi: Buyuk shaxslarni tarix yaratadi, – deydilar. Bunga qo‘shimcha qilib, Sohibqiron bobomizning suronli hayotini xayol ko‘zgusidan o‘tkazib, buyuk shaxslarni millat qayg‘usi, xalq dardi yaratadi, deyish mumkin.

Bolalar ijrosida she’r

1-o‘quvchi: Yurtimning mard, jasur, botir o‘g‘loni,
Sarbaland ko‘tardi turkiy tug‘roni.
Jahonga jahondek mag‘rur bo‘lg‘oni,
Amir Temur bobom – podshohi olam.

2-o‘quvchi:
O‘giti ma’nosi xo‘p beadaddir,
Tuzuklari hamisha bizga madaddir.
Ota-bobolarga ruhi madaddir,
Amir Temur bobom, sarkarda bobom.

3-o‘quvchi:
Dasturilamaldir siz bitgan hikmat,
Siz – sajda qilgulik ulug‘vor xilqat.

Siz-la o'sib borar g'ururim qat-qat,
Sizga bo'lgan hurmat cheksiz, beadam.

(She'r so'ngida boshlovchi yakunlovchi so'z aytib, tadbir oxirlaganini ma'lum qiladi.)

Boshlovchilar: Aziz mehmonlar! Mana, buyuk sarkarda Amir Temur bobomiz tavallud topgan kunga atalgan tadbirimiz ham o'z nihoyasiga yetdi. Biz tadbirda Jahongir bobomiz bosib o'tgan hayot yo'lini, ma'rifat, madaniyat, obodonchilik borasida qilgan savobli ishlarini, mardlik va jasoratlarini o'zimizning chiqishlarimiz, she'rlarimiz, raqs-u qo'shiqlarimiz, sahna ko'rinishi va bobomiz tuzuklari orqali namoyon etishga harakat qildik. Shu orqali bu ulug' zotga hurmatimiz cheksizligini ifoda etdik. E'tiboringiz uchun rahmat.

(Tadbir ohirida tashrif buyurgan mehmonlar, maktab rahbarlariga va ota-onalarga so'z beriladi.)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islom Karimov. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish – mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy mezonidir/ Karimov I.- T.19.- T.:O`zbekiston, 2011.- 345b.
2. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch/ Karimov I.- T.:Ma'naviyat, 2008.- 173b.
3. Amir Temur – faxrimiz, g`ururimiz.- T.:O`zbekiston, 1998.- 208b.
4. Yozgi bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari uchun tadbirlar ssenariylari.- Sohibqiron bobomiz Amir Temur/X.J.Sattorova.
5. Ziyouz.com
6. Ustoz.uz